

GENERATIV SPEKTAKL FENOMENI: ALGORITMIK DRAMATURGIYA VA RAQAMLI ESTETIKA PARADIGMASI

<https://doi.org/10.70728/orien.v07.i02.001>

Ilhom Yakubovich Sodiqov
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada generativ spektakl zamonaviy raqamli madaniyat va sun'iy intellekt texnologiyalari taraqqiyoti sharoitida shakllanayotgan yangi teatr paradigmasi sifatida tahlil qilinadi. Muallif tomonidan generativlik tushunchasining nazariy asoslari, postdramatik estetika bilan o'zaro bog'liqligi, algoritmik dramaturgiyaning metodologik xususiyatlari hamda interaktiv sahna muhitining strukturasi ilmiy tahlil qilingan. Tadqiqotda inson-mashina ko-kreatsiyasi modeli teatr san'atining an'anaviy mualliflik konsepsiyasini transformatsiya qilayotgani asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: generativ spektakl, algoritmik dramaturgiya, sun'iy intellekt, postdramatik teatr, raqamli estetika, interaktiv sahna

THE PHENOMENON OF GENERATIVE SPECTACLE: A PARADIGM OF ALGORITHMIC DRAMATURGY AND DIGITAL AESTHETICS

Ilkhom Yakubovich Sodiqov
Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

Abstract: This study analyzes generative performance as a new theater paradigm that is being formed in the context of the development of modern digital culture and artificial intelligence technologies. The author scientifically analyzes the theoretical foundations of the concept of generativity, its relationship with postdramatic aesthetics, the methodological features of algorithmic dramaturgy, and the structure of the interactive stage environment. The study argues that the human-machine co-creation model transforms the traditional concept of authorship in theater art.

Keywords: generative performance, algorithmic dramaturgy, artificial intelligence, postdramatic theater, digital aesthetics, interactive stage

So'nggi o'n yillikda raqamli texnologiyalar san'at amaliyotini nafaqat texnik jihatdan, balki konseptual darajada ham o'zgartirmoqda. Teatr san'atida kuzatilayotgan innovatsion jarayonlar orasida generativ spektakl alohida o'rin tutadi.

Generativlik atamasi ilk bor algoritmgaga asoslangan avtonom ijod jarayonlarini ifodalash uchun qo'llangan bo'lib, Philip Galanter uni murakkab tizimlar nazariyasi bilan bog'laydi va san'atni qoidalar asosida o'z-o'zini rivojlantiruvchi jarayon sifatida sharhlaydi¹. Teatr nazariyasida esa dramatik matn markaziy roldan chetlashib, sahnaviy voqelik mustaqil strukturaga aylangani haqqidagi ta'limot muhim ahamiyat kasb etadi. Postdramatik teatrda jarayon, performativlik va vizual struktura matndan ustun qo'yiladi. Ushbu maqolada biz siz bilan generativ spektaklni aynan shu nazariy zaminda, raqamli texnologiyalar ishtirokida shakllanayotgan yangi estetik model sifatida ko'rib chiqimiz.

1. Generativlikning nazariy asoslari

Generativ san'atning asosiy belgisi - natijaning emas, balki jarayonning ustuvorligi. Algoritm belgilangan qoidalar majmuasiga tayanadi, ammo yakuniy estetik shakl oldindan qat'iy belgilanmaydi.

Lev Manovich raqamli madaniyatni "dasturlash mantig'i" bilan izohlab, madaniy mahsulotlarning kodlashgan tabiatini ta'kidlaydi³. Shu nuqtai nazardan, generativ spektakl - bu kodlangan dramaturgik modelning real vaqtda vizual va performativ shaklga aylanishidir.

Generativ teatrni uch darajada tahlil qilish mumkin:

Algoritmik daraja - ssenariyning dasturiy strukturasi;

Performativ daraja - aktyor va raqamli tizim o'zaro ta'siri;

Qabul qilish darajasi - tomoshabin ishtirokida ma'no hosil bo'lishi.

Bu model an'anaviy rejissurani dinamik boshqaruv tizimiga aylantiradi.

2. Algoritmik dramaturgiya: metodologik yondashuv

Sun'iy intellekt texnologiyalari dramaturgiyani statik matndan dinamik ma'lumotlar tizimiga aylantirmoqda. Zamonaviy til modellari, jumladan OpenAI tomonidan ishlab chiqilgan neyrotarmoqlar, syujet liniyalarini variantli shaklda generatsiya qilish imkonini bermoqda[4, 10].

Algoritmik dramaturgiya quyidagi metodologik tamoyillarga asoslanadi:

ehtimoliylik modeli;

ma'lumotlarga asoslangan personaj dinamikasi;

interaktiv qaror qabul qilish mexanizmi;

ssenariyning modulli tuzilishi.

Bu holatda dramaturg - yagona muallif emas, balki tizim arxitektori. Mualliflik funksiyasi inson va algoritm o'rtasida taqsimlanadi. Lo'nda qilib aytganda aktyor o'z ijrosini bir nechta tizimlardan o'tkazadi va oxirgi nuqta qanday bo'lishini taxmin qiladi xolos.

3. Interaktivlik va sahna muhitining transformatsiyasi

Generativ spektaklda sahna statik makon emas, balki reaktiv muhit hisoblanadi. Sensorlar, harakatni aniqlash tizimlari va ma'lumotlar oqimi performans dinamikasini o'zgartirishi mumkin.

Yevropa amaliyotida, xususan Royal Shakespeare Company tomonidan amalga oshirilgan raqamli integratsiya loyihalarida vizual muhit aktyor harakatiga mos ravishda o'zgarishi kuzatilgan[5].

Shuningdek, MIT Media Lab doirasida performativ texnologiyalar bo'yicha tadqiqotlar sahnaviy voqelikni ma'lumotlar arxitekturasini sifatida ko'rib chiqish imkonini bermoqda[6]

Mening fikrimcha, bunday muhitda spektakl "yakunli angan asar" emas, balki doimiy ravishda yangilanib turuvchi tizimga shxshaydi.

4. Estetik va falsafiy qayta qarashlar

Generativ spektakl san'at falsafasidagi mualliflik, originallik va interpretatsiya masalalarini qayta ko'rib chiqishni talab qiladi.

Umberto Eco "ochiq asar" nazariyasida estetik obyekt interpretatsiya jarayonida shakllanishini ta'kidlagan[7]. Generativ spektaklda esa bu jarayon texnik darajaga ko'tariladi: asar har safar algoritm orqali qayta tuziladi.

Shu nuqtai nazardan, generativ teatr:

Qaytariladigan emas;

ko'pvariantli;

protsessual tabiatga ega;

jamaviy - algoritmik mualliflikka asoslangan.

Bu esa teatr nazariyasida yangi paradigma shakllanayotganini ko'rsatadi.

5. Shu o'rinda Milliy teatr amaliyoti uchun bir qancha metodik tavsiyalar bor.

O'zbekiston teatr tizimida generativ yondashuvni joriy etish quyidagi bosqichlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq bo'lar edi:

- Raqamli dramaturgiya laboratoriyalarini tashkil etish;
- Rejissyorlar uchun algoritmik tafakkur bo'yicha malaka oshirish kurslarini tashkil etish;
- Milliy dramaturgiya va adabiyot materiallarni AI ma'lumotlar bazasiga aylantirish;
- AR/VR texnologiyalari bilan integratsiya qilingan eksperimental sahnalar yaratish.
- Muallifning ilmiy xulosasiga ko'ra, generativ spektakl milliy madaniy kontentni global raqamli maydonga olib chiqish imkoniyatini beradi. Shu yo'lda AI mutaxasislari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish.

Generativ spektakl - bu teatr san'atining raqamli madaniyat sharoitidagi evolyusion bosqichidir. Unda algoritm, sun'iy intellekt va inson ijodi o'zaro hamkorlikda yangi estetik struktura yaratadi.

Dunyo tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, , bugun dramaturgiya dinamik tizimga aylanmoqda. Mualliflik modeli transformatsiyaga uchramoqda. Teatr interfaol va ma'lumotlarga asoslangan muhitga aylanmoqda. Kelgusida generativ spektakl sohasida metodologiya, etika va huquqiy asoslarni chuqur tadqiq etish zarurati tug'ulishi aniq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Galanter, P. (2003). What is Generative Art? Complexity Theory as a Context for Art Theory.
2. Lehmann, H.-T. (2006). Postdramatic Theatre. Routledge.
3. Manovich, L. (2001). The Language of New Media. MIT Press.
4. OpenAI (2023). GPT Models and Creative Writing Research Overview.
5. Royal Shakespeare Company (2022). Digital Performance and Interactive Stage Report.
6. MIT Media Lab (2021). Interactive Media and Performance Research Papers.
7. Eco, U. (1989). The Open Work. Harvard University Press.